

## Universitetim-faxrim

Suvanova Shohista Mardon qizi

O'zbekiston Milliy universiteti

xorijiy filologiya fakulteti 2-kurs talabasi

Oq oydin orzular, bepayon osmon,  
Ruhimga jon berar ilhom suyulib.  
Mozeydan yangraydi ilohiy doston,  
Va seni kuylayman qalbdan suyunib.

Sen o'zing ilk dargoh, ilm maskani,  
Nomingga yo'ldoshdir Ulug'bek Mirzo.  
Sen yurtning ishonchi, xalqning malhami,  
Ko'ksingdan taralar bilim va ziyo.

Sen Oybek ilhomi, Erkinning she'ri,  
Abdulla madhi-yu Asqad Muxtorsan.  
Yashnagin, yashading yuz yildan beri  
Sen o'zing dahosan, o'zing Qahhor san.

Sendadir ta'limning issiq o'chog'i,  
Onasan bizlarni yurgan opichlab.  
Kamolga yetgazar sening quchog'ing,  
Senga mehrim beray bugun hovuchlab.

Dargohing muqaddas, noming ham ulug',  
Qaddingni egmasin zamona zayli.  
Bugungi ayyoming bo'lgaydir qutlug',  
Men ham mag'rurdirman sening tufayli.